



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Республика Шахарсозлик экспертизаси

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel. 244-04-85, E-mail: davexpertiza@exat.uz,
devexpertiza@umail.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: INOYATOV MIRABBOS MIRKOMILOVICH

Sana: 24-01-2024 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 138848

Obyekt nomi ««Toshkent viloyati, Zangiota tumani, A.Temir mahalla fuqarolar yig'ini, Mustaqillik ko'chasi 21B-uy manzilida pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish bo'lgan, ko'p qavatli turar-joy majmuasi qurilishi» ishchi loyihasi»

Buyurtmachi - «GENUS ZANGIOTA» MCHJ

Bosh loyihachi - «ARXPROEKTDIZAYN» MCHJ

Litsenziya 27.11.2023 yil №AL-000221 sonli

Moliyalashtirish manbai - buyurtmachi o'z mablag'lari

Bosh pudratchi - buyurtmachi tomonidan aniqlanadi

Qurilish turi yangi qurilish

Murojaat raqami: № 127109

1. Loyihalash uchun asos

1.1. Toshkent viloyati Zangiota tumani qurilish bo'limi tomonidan 2023-yil 25-fevralda berilgan 1727237-95722-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Toshkent viloyati qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2023-yil 11-martda berilgan 1727-1727265-62727-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2023-yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.4. «TRADE GEO SERVICE» MCHJ tomonidan 2023-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

1.5. Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2023-yil 25-oktyabrda tuzilgan 06/23-sonli shartnoma.

1.6. «Toshkent shahar suv ta'minoti» MCHJ tomonidan 2023-yil 29-sentyabrda berilgan 270/4-3217-sonli texnik sharti.

1.7. «Hududgaz Toshkent» GTF tomonidan 2023-yil 21-avgustda berilgan 031752-sonli texnik sharti.

1.8. «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ tomonidan 2023-yil 31-oktyabrda berilgan 43-26/3436-sonli texnik sharti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra «ishchi loyiha» ning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha

hujjatlari.

- bosh reja (GP);
- arxitektura yechimlari (AR);
- konstruktiv yechimlar (KJ);
- konstruktiv hisobot.
- Bino teplotexnik hisobi
- Binoning energiya pasporti

2.2. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi M.T. O'rozboev nomidagi mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti (29.12.2023 yildagi 970-3-sonli xati va 1-sonli ilmiy xulosasi).

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.

Normativ shamol bosimi - $W_0 = 0,38$ kPa.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50$ kPa.

Hudud zilzilabardoshlik - 7 ball (100 yilda bir marta), - 8 ball (1000 yilda bir marta).

Tuproqning turiga, litologik tuzilishiga, fizikasiga, mustahkamligiga va o'rganilayotgan qatlamdagi tuproqlarning deformatsiya xossalari, 2 ta muhandislik geologik elementga ega:

MGE1 - lyossimon qumloq. Quvvati 4.4-7.0m.

MGE2 - lyossimon qumloq. Quvvati 16.8-20.0m.

Tuproq toifasi seysmik xususiyatiga ko'ra - III (uchinchi).

Tuproq cho'kuvchanligi bo'yicha toifasi - I (birinchi).

Yer osti suvlari yer sathidan 3.1-5.6 m chuqurlikgacha aniqlanmagan.

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi - 0,70 m.

3.2. Bosh reja.

Ushbu ob'ekt Toshkent viloyati, Zangiota tumani, A.Temir mahalla fuqarolar yig'ini, Mustaqillik ko'chasi 21B-uy manzilida joylashgan bo'lib, quyidagilar bilan chegaradosh: shimoldan - Zangiota tumani MET, janubdan - madaniyat saroyi, sharqdan - 14-sonli maktab, g'arbdan - yozgi amfiteatr.

Hududda quyidagi bino va inshootlar qurilishi ko'zda tutilgan:

- turar-joy binolari
- bolalar maydochasi
- avtoturargoh
- hududni obodonlashtirish va h.k.

Bosh reja texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Umumiy maydoni - 0.5343 ga;

Qurilish maydoni - 0.3199 ga

Qoplamalar maydoni - 0.1344 ga

Ko'kalamzor maydoni – 0.080 ga

3.3. Arxitekturaviy yechimlari.

Loyihaning ushbu bosqichida G, D va Ye bloklar qurilishi ko'zda tutilgan.

Turar-joy binosi (G, D, Ye - blok) – ushbu bino 13, 14 va 15 qavatli, yerto'lali, to'rtburchak shaklida bo'lib, umumiy o'lchamlari 19.8x57.3m. Yerto'la qavat balandligi 5.4m. Birinchi qavat balandligi 3.9m, yuqori qavatlar balandligi 3.15m (poldan shiftgacha).

Bino 3 ta yo'lakdan iborat.

Binoda quyidagilar joylashgan:

- yerto'la qavatida – lift maydoni, zinapoya, avtoturargoh h.k.
- 1-qavatda – savdo-maishiy xizmat ko'rsatish xonalari, lift maydoni, zinapoya va x.k.
- yuqori qavatlarda – xonadonlar.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Qurilish maydoni - 1143.6 m²

Umumiy maydoni – 14385.3 m²;

Qurilish hajmi – 70343.0 m³;

Ichki pardoqlash:

Devorlar va pardevorlar – yaxshilangan suvoq, tekislangan, suv emulsiyasi bilan bo'yalgan.

Eshiklar – alyumin va MDF.

Oynalar – PVX profillar.

Shiftlar – gipsokarton, plastik reyka, suv emulsiyasi bilan bo'yalgan.

Pollar – beton, keramik plitalardan iborat.

Tashqi pardoqlash:

Devorlar – jun-mineral qoplama, fasad bo'yog'i bilan bo'yash.

Poypesh – keramogranit plita bilan qoplangan.

3.3. Konstruktiv yechimlari.

Binoning konstruktiv sxemasi - qattqlik diafragmali, rama-bog'lamali, monolit temirbeton karkas.

Poydevor asosi – qalinligi 4500mm bo'lgan qum-tosh aralashmasidan yostiq.

Poydevor – qalinligi 1500mm bo'lgan monolit temirbeton plita.

Poydevor devorlari – qalinligi 400mm bo'lgan monolit temirbeton.

Qattqlik diafragmasi - qalinligi 400mm bo'lgan monolit temirbeton.

Tashqi devor – 200mm qalinlikdagi gazoblok.

Ichki devorlar – 100 mm va 200mm qalinlikdagi gazobeton bloklar.

Ustunlar – kesimi 500x500mm bo'lgan monolit temirbeton.

Pilonlar – kesimi 1800x500mm bo'lgan monolit temirbeton.

To'sinlar (rigel) - kesimi 400x400mm bo'lgan monolit temirbeton.

Tom yopma va oraliq yopma – 180 mm qalinlikdagi monolitli temirbeton.

Lift shaxtasi - monolitli temirbeton.

Zinalar – monolitli temirbeton.

Tom qismi – metall konstruksiyalar bo'ylab profnastil.

3.4. Yong'in xavfsizligi.

Yong'inga qarshiligi – II toifa.

Funksional yong'in xavf turi – F1.3.

Konstruktiv yong'in xavf turi – CO.

3.5. Energiya samaradorlik.

Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo'riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamkorlik ishlari ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, ShNQ 2.01.04-2018 "Qurilish issiqlik texnikasi" me'yoriy hujjati 2-jadval 2.1-punktiga asosan devorlar tashqi tomondan 50 mm qalinlikdagi jun-mineral qoplama bilan qoplangan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (2023-yil 31-iyuldagi 76845-sonli xulosasi).

- O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi Vazirligi, Toshkent viloyati filiali (2023-yil 27-oktyabrdagi 05/2-2211-sonli ekologik ekspertiza xulosasi).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, muhandislik tarmoqlari, texnologik yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. Buyurtmachi tashqi muhandislik tarmoqlariga ulanish uchun tegishli tashkilotlardan olingan texnik shartlar asosida ishchi loyihaning muhandislik tarmoqlari bo'limlarini ishlab chiqishi shart. Ishlab chiqilgan loyihalarni ekspertiza ko'rigiga taqdim etilishi so'raladi.

6.6. Buyurtmachi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentyabrdagi "Energiya tejavchi

texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-220-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida ushbu binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish shart.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishinni ta'minlaydi.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. «Toshkent viloyati, Zangiota tumani, A.Temir mahalla fuqarolar yig'ini, Mustaqillik ko'chasi 21B-uy manzilida pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish bo'lgan, ko'p qavatli turar-joy majmuasi qurilishi» ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

Ekspert mutaxassislar: R. Shakurov, Dadaxodjaev A.

Bosh mutaxassis: AVAZOV XASHIMJON TURABAEVICH